

## **DELPHIDA GRAFIKA BILAN ISHLASH. IMAGE VA SHAPE OBYEKTлари BILAN ISHLASH**

Qoraqolpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani

1-son kasb-hunar maktabi, informatika fani o‘qituvchisi

Madenova Guljamila Tursinbaevna

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Delphida grafika bilan ishlash. Image va Shape obyektlari bilan ishlash haqida fikir yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Delphi dasturlash tili, project, ROM yoki DVD-ROM, avtozagruzka, Back, Next, Cancel.*

Delphi dasturlash tili ham boshqa dasturlash tillari va amaliy paketlar singari Windows OT o‘rnatilgandan so‘ng o‘rnatishni talab etadi. Bu dasturlash tilini qulaylik tomoni shundan iboratki, dasturda dasturlash ishlarini amalga oshirilgandan so‘ng uni project(exe ko‘rinishda bo‘lganda) sifatida kompyuter xotirasiga saqlangandan so‘ng dastur o‘rnatilmaganda ham bimalol tuzilgan dasturdan foydalanish mumkun. Delphi dasturlash tilini kompakt diskdan, fliškadan, tarmoq orqali va vinchester(qattiq disk)dan o‘rnatish mumkin. Delphi dasturlash tilini kompakt disk yordamida o‘rnatmoqchi bo‘lsangiz diskni CD-ROM yoki DVD-ROM ga qo‘yiladi va Delphi7 tugmasi tanlanadi. Agarda avtomatik yuklanish (avtozagruzka) bekor qilingan bo‘lsa, Install papkasidagi setup.exe bandi tanlanadi.

Dasturni o‘rnatish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: 1-bosqich. Yuqoridagi buyruq tanlangandan so‘ng, quyidagi oyna paydo bo‘ladi. Bu oynada uchta tugma mavjud bo‘lib:

1. Back- orqaga qaytish tugmasi;
2. Next-oldinga o‘tish tugmasi;

3. Cancel-bajarilayotgan ishni bekor qilish. Mavjud bo‘lgan uchta tugmadan Next(oldinga o‘tish) tugmasini tanlash lozim.

Bu bosqichda birinchi bo‘lib 6 ta katakchadan iborat dastur kodini kiritish so‘raladi. Agar bu kod bo‘lmasa dasturni o‘rnatib bo‘lmaydi.

Kodi kiritilgandan so‘ng, Next(oldinga o‘tish) tugmasini tanlaganimizdan so‘ng quyidagi ko‘rinishlar hosil bo‘ladi.

Yuqoridagi bosqichdan keyin, uchta muloqat oynalarning har birida mavjud bosqichlardan birini tanlab, keyingi oynalarga o‘tish uchun Next(oldinga o‘tish) tugmasini tanlaymiz kerak, muloqat oynasidan “Da” tugmasi tanlanadi va navbatdagi bosqichga o‘tamiz.

Bu bosqichlarda ham yuqoridagi bosqichlar singari Next(oldinga o‘tish) tugmasini tanlaymiz. Hozirgi paytda diyarli hamma kompyuterlarda office XP, yoki office 2003 daturi o‘rnatilgan shuning uchun biz office XP bandi ko‘rsatilgan belgini tanlashimiz shart.

Bu ko‘rinishda dasturni o‘rnatiladigan joylar tanlanadi. “Change...” tugmasi yordamida dasturni o‘rnatiladigan joyni tanlash mumkin. Yuqorida bosqichlarda kompyuter xotirasidagi joyni va qurilmalarning mosligi tekshirib, agar dastur va qurilma mosligi mavjud bo‘lsa dasturni o‘rnatishga ruxsat beriladi.

3-bosqich. 1. Bu bosqichlarda ham Next(oldinga o‘tish) tugmasini tanlaymiz

2. Yuqoridagi bosqichlardan so‘ng, dasturni o‘rnatishdagi ko‘rinish ketma-ketligi quyidagi ko‘rinishlar paydo bo‘ladi:

birinchi oynada Next (oldinga o‘tish) tugmasini, ikkinchi rasmda esa “OK” tugmasini tanlaymiz va navbatdagi bosqichga o‘tamiz.

3. Bu bosqichlarda ham yuqoridagilar singari Next(oldinga o‘tish) tugmasini tanlaymiz. 4. Delphi dasturlash tilini o‘rnatishda dastur o‘zi tanlagan belgi va buyruqlarni tasdiqlash yetarli bo‘ladi.

5. Bu bosqichlarda ham yuqoridagidek oldinga o‘tish tugmasini tanlash kifoya.

Demak, yuqoridagi ketma-ketliklardan so‘ng Finish(ishni yakunlash) tugmasini tanlash lozim bo‘ladi.

Biz yuqoridagi oynalardan ishni tugatish tugmasini tanlaymiz va navbatdagi oyna hosil bo‘ladi.

Bu oynada Delphi7 dasturini o‘rnatilganligini tasdiqlaydi va sizga ikkita buyruqni tavsiya etadi, ya’ni: Windows operatsion tizim(sistemesi)ni qayta ishga tushirishni yoki o‘z holicha qoldirishni so‘raydi. Agar siz operatsion tizimni qayta ishga tushurmoqchi bo‘lsangiz “Yes” aksincha, o‘z holicha qoldirmoqchi bo‘lsangiz “No” tugmasini tanlashingiz kifoya qiladi. Biz sizga “Yes” buyrug‘ini tanlashni taklif etamiz.

Xulosa o‘rnida, Delphi dasturlash tilini ishga tushirishning bir nechta usullari mavjud: - foydalanuvchining ish stolidagi yorliq yordamida; - quyi masalalar paneli yordamida; - bosh menyu yordamida. Delphi dasturini bosh menyu yordamida ishga tushurishni ko‘rib chiqaylik. Agar siz ishlaydigan kompyuterda dastur o‘rnatilgan bo‘lsa, quyidagicha bo‘ladi: “Пуск”→“Программы” → “Borland Delphi 7” buyrug‘i tanlanadi.

#### Adabiyotlar

1. Sh. A.Nazirov, M.M.Musayev, A.Ne`matov, R.V.Qobulov “Delphi tilida dasturlash asoslari”. Toshkent 2007 yil.
2. Informatika. A. Ahmedov, N. Tayloqov , Toshkent, “O‘zbekiston” 2008 -y.
3. P.Karimov, S.Irisqulov, A. isabayev “Dasturlash” Toshkent, “O‘zbekiston” 2003- y.
4. A.A. Xaldjigitov, Sh.F. Madraximov, A.M. Ikramov, S.I. Rasulov “Paskal tilida dasturlash bo‘yicha masalalar t o‘plami” 2002-y.
5. www.ref.uz – Referatlar , kurs ishilar va diploma ishilar